


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT



UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA
FAKULTETI

Ro'yxatga olindi:

№ BD-60520100

60520100-1.22

2024 yil "12" 03

"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I. Xalmuradov

2024 yil " " "

AGROMETEOROLOGIYA FAN DASTURI

Bilim sohasi:

500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va
statistika

Ta'lim sohasi:

520 000 – Atrof muhit

Ta'lim yo'nalishi:

60520100 – Meteorologiya va
iqlimshunoslik

Fan/modul kodi AGM1606	O'quv yili 2026-2027	Semestr VI	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Agrometeorologiya	78	102
			180

Fanning maqsadi (FM)	
I. FANNING MAZMUNI Fanni o'qitishdan maqsad – Respublikamiz viloyatlarida faoliyat olib borayotgan agrometeorologik stansiyalar va postlar, atmosferaning tarkibi va tuzilishi, Quyosh radiatsiyasi va uning ekinlar uchun ahamiyati, tuproq va havoning harorat rejimi, namligining o'simliklar hayotiga ta'siri, atmosferadagi suv bug'i, bug'lanish va bug'lanuvchanlik, yog'inlar hamda qishloq xo'jaligi uchun xavfli hodisalarini o'rganishdan hamda ularni amaliyotda ta'biq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	
Fanning vazifasi - talabalarga qishloq xo'jalik ekinlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy agrometeorologik omillar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan, Quyosh radiatsiyasini tavsiflovchi kattaliklar, havo va tuproqning harorati va namligi, xavfli meteorologik hodisalarga qarshi kurashish usullarini o'rganishdan, agrometeorologik ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish usullarining rivojlanish istiqboli bilan tanishtirishdan iborat.	

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	Agrometeorologiya kursiga kirish Agrometeorologiya kursning predmeti, maqsadi va vazifalari uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
M2	O'zbekistonda agrometeorologiya fani rivojlanishi O'zbekistonda agrometeorologiya fani rivojlanishi qisqacha tarixi. O'rita Osiyoda hozirgi zamon agrometeorologiya fanining tashkil topishi va uning rivojlanishida O'zbekiston olimlarining hisssasi. Gidrometeorologik va agrometeorologik xizmatlarning rivojlanishi.
M3	Agrometeorologiyani tadqiqot usullari va asosiy qonuniyatlar Agrometeorologiyani tadqiqot usullari. Tadqiqotlar olib borishda tayanch asosiy qonuniyatlar.
M4	O'zbekiston viloyatlari, agro va gidrometeorologik kuzatuvlar haqida qisqacha tavsif O'zbekiston viloyatlari haqida qisqacha tavsif. Viloyatlar hududida joylashgan agro va gidrometeorologik stansiya va postlar haqida qisqacha ma'lumot. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy, Samarqand va Jizzax, Toshkent va Sirdaryo, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyati haqida qisqacha geografik tavsif va gidrometeorologik stansiya va postlar to'g'risida ma'lumotlar
M5	Yer atmosferasi va uning qishloq xo'jaligi uchun ahamiyati Yerga tutash havo qatlami tarkibi va uning qishloq xo'jaligi uchun ahamiyati.

	Atmosfera aeroloji. Havo tarkibidagi asosiy gazlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyati. Atmosfera havosini ifloslovchi manbalar. Atmosfera havosini ifloslanishining oqibatlari. Atmosfera ifloslanishi va unga qarshi kurash choralari. Atmosferaning vertikal tuzilishi. Atmosfera bosimining birliklari. Atmosfera bosimining balandlik bo'yicha o'zgarishi. Barik pog'ona.
M6	Quyosh radiatsiyasi va uning ekinlar uchun ahamiyati Quyosh – tabiiy jarayonlarning quvvat manbaidir. Quyosh radiatsiyasining spektral tarkibi. Quyosh radiatsiyasining atmosfera jarayonlari va biosferaga ta'siri. Fotosintetik faol radiatsiya. Quyosh radiatsiyasining yorug'lik ekvivalenti. Yoritilganlikning o'simliklar uchun ahamiyati. Qaytgan Quyosh radiatsiyasi. Albedo. Yer va atmosferaning uzun to'liqini nurlanishi. Radiatsion balans. Radiatsion balans tenglamasi.
M7	Havoning issiqlik rejimi Havoning isish va sovish jarayonlari. Havo haroratini o'lchash. Havo haroratining balandlik bo'yicha o'zgarishi. Havo harorati inversiyalari. Havo haroratining sutkalik va yillik o'zgarishlari. Joylarning harorat rejimlari tavsiflari. O'simliklarning
M8	Tuproqning issiqlik rejimi Tuproqning isish va sovish jarayonlari. Tuproqning issiqlik balans tenglamasi. Tuproq harorati va o'simlik muhitidagi issiqlik tarqiboti. Tuproqning issiqlik-fizik xususiyatlari. Tuproq haroratini o'lchash. Tuproq yuzasi haroratining sutkalik va yillik o'zgarishlari. Tuproq haroratining o'simliklarga ta'siri. Tuproqning issiqlik rejimini maqbulashirish.
M9	Atmosferadagi suv bug'i Suv bug'ining atmosferaga o'tishi. To'yinagan bug' bosimi. Suv bug'ining atmosferaga o'tishi. To'yinagan bug' bosimi. Havo namligini tavsiflaydigan kattaliklar. Havo namligini o'lchash usullari. Suv bug'ining parsial bosimi va nisbiy namlikning o'zgarishi. Havo namligining o'simlikka ta'siri.
M10	Bug'lanish, bug'lanuvchanlik Bug'lanish. Suv va tuproq yuzasidan bug'lanish. O'simliklarning bug'lanishi. Bug'lanuvchanlik. Bug'lanishning sutkalik va yillik o'zgarishi. Bug'lanishni boshqarish tadbirlari. Atmosferada suv bug'ining kondensatsiyasi va sublimatsiyasi. Shudring. Qirov. Bulduruq. Yaxmalak. Tuman. Bulutlar.
M11	Yog'inlar. Qor qoplamasi Tomchilarning yirkilashuvi va yog'inlarning vujudga kelishi. Yog'in turlari. Yog'inlarning sutkalik va yillik o'zgarishi. Yer yuzida va O'zbekiston hududlarida yog'inlarning taqsimlanishi. Qor qoplamasi. Yog'inlarning qishloq xo'jaligi ekinlari uchun ahamiyati.
M12	Havo va tuproqning namligi Yog'inlar. Havo namligi. Suvning bug'lanishi. O'simliklar transpiratsiyasi. Suv bug'i kondensatsiyasi. Havo namligi va ularning o'simliklar hayotidagi roli. Tuproq namligi va uning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga ta'siri. Tuproqning ba'zi agrogidrogik xossalari. Tuproqning suv balans va o'simliklarning nam bilan ta'minlanganligi. Tuproq suv rejimini boshqarish va yaxshilash tadbirlari.
M13	Qishloq xo'jaligi uchun xavfli meteorologik hodisalar Qora sovuqlar. Mahalliy sharoitlarning qora sovuqlar kuchiga, to'xtash va boshlanish muddatlariga ta'siri. Qora sovuqning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri. Qora sovuqni prognoz qilish. Qishloq xo'jalik ekinlari qora sovuqdan himoya qilish. Qurg'oqchilik va gamsellar. Atmosfera qurg'oqchiligi. Qurg'oqchilikka qarshi kurash chora-tadbirlari. Changli bo'ronlar. O'zbekiston hududlarida changli bo'ronlarning hosil bo'lishi va davomiyligi. Changli bo'ronlarga qarshi kurash tadbirlari. Jala yong'ir va tuproqning suv eroziyasi. Do'l. O'zbekistonda do'l hodisalari va uning hosil bo'lish sabablari. Ekinlarni do'l urishidan himoya qilish. Yilning sovuq mavsumida qishloq xo'jalik ekinlari va meteorologik hodisalar.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy mashg'ulotlar (A) uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	

A1	O'zbekistonda agrometeorologik stansiya va postlar karta-sxemasi
A2	Agrometeorologik ma'lumotlar turlari.
A3	Agrometeorologik ma'lumotlarni kodlash. Kod KN-21.
A4	Atmosfera bosimini hisoblash va tahlil etish.
A5	Quyosh radiatsiyasini hisoblash. Fotosintetik faol radiatsiyani hisoblash.
A6	Qishloq xo'jaligi ekinlarining rivojlanish fazalari uchun FPR ni hisoblash.
A7	Agrometeorologik stansiya va postlarda havo haroratining besh va o'n kunliklar, oylar va fasllar, minimal havo haroratining o'zgarishlarini hisoblash.
A8	Agrometeorologik stansiya va postlarda tuproq yuzasi, maksimal va minimal haroratlarning besh va o'n kunliklar, oylar va fasllar bo'yicha o'zgarishlarini hisoblash.
A9	Agrometeorologik stansiya va postlarda tuproqning turli chuqurliklarida tuproq haroratini hisoblash.
A10	Havo va tuproq namligini hisoblash.
A11	Meteorologik stansiyalarda kuzatilgan ma'lumotlar asosida meteorologik kattaliklarni hisoblash.
A12	Atmosfera yog'inlarini hisoblash.
A13	Termogigrometrik koeffitsiyentni hisoblash.
A14	Sug'oriladigan va lalmi yerlarda shamol tezligi va yo'nalishini hisoblash.
A15	Xavfli meteorologik hodisalarni o'rganish

IV. Ushbu fanda laboratoriya mashg'ulotlari olib borish ko'zda tutilmagan

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular "Agrometeorologiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejas

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	O'zbekistonda agrometeorologiyani shakllanish bosqichlari
2.	Agrometeorologik tadqiqotlar uslub.
3.	Tadqiqotlar olib borishda tayanch asosiy qonuniyatlar.
4.	O'zbekiston va dunyoda agrometeorologiyani rivojlanish tarixi.
5.	O'zbekistonda amalga oshirilgan agrometeorologik tadqiqotlar. O'zbekistonda amalga oshirilgan agrometeorologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari.
6.	Agro va gidrometeorologik stansiyalar tarmog'i
7.	Agrometeorologik postlar tarmog'i
8.	Agrometeorologik ma'lumotlarni to'plash va tarqatish tizimi.
9.	O'zbekiston Respublikasida agrometeorologiya xizmati
10.	Agrometeorologik ma'lumotlarni kodlash.
11.	Qishloq xo'jalik ekinlarining rivojlanish fazalari.
12.	Texnik ekinlarning rivojlanish fazalari.
13.	Donli ekinlarning rivojlanish fazalari.
14.	Mevali ekinlarning rivojlanish fazalari.
15.	Atmosfera tarkibi va tuzilishi.
16.	Atmosfera qo'shiladigan ifloslantiruvchi moddalar.
17.	Atmosfera qo'shiladigan ifloslantiruvchi moddalarning tarkibiy tuzilishi.
18.	Atmosfera qo'shiladigan ifloslantiruvchi moddalarning miqdori va ularning hududiy tarqalishi.
19.	Quyosh radiatsiyasi. Quyosh radiatsiyasi turlari, ularni o'lchash asbob-uskunalar. Radiatsiyaning qishloq xo'jalik ekinlari rivojlanishidagi ahamiyati. Fotosintetik faol radiatsiya.
20.	Havo haroratining o'zgarishi sabablari. Maksimal havo harorati o'zgarishi. Minimal havo harorati o'zgarishi.
21.	Rivojlanish fazalari orasida o'rta havo haroratini hisoblash. Samarali havo harorati yig'indisini hisoblash. Rivojlanish fazalari orasida samarali havo harorati yig'indisini hisoblash. O'simliklar uchun xavfli haroratlarning chegaralari.
22.	Tuproq haroratining o'zgarishi sabablari. Tuproqdagi maksimal va minimal haroratlari.
23.	Qishloq xo'jaligi ekinlariga ta'sir etuvchi xavfli meteorologik hodisalar. Do'l va uning paydo

	bo'lishi.
24.	Atmosfera yog'inlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi.
25.	Qishloq xo'jaligi ekinlari uchun atmosfera yog'inlarini o'rganishning amaliy ahamiyati. Jala yog'inlar. O'zbekistonda kuzatiladigan jala yog'inlar miqdori.

"Agrometeorologiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, agrometeorologiyani rivoj va tarixiyi, agrometeorologik xizmat ko'rsatish zarur bo'ladigan asosiy kattaliklarni o'rganish, agrometeorologik kattaliklarni aniqlash, agrometeorologik ma'lumotlarni tahlil etish, agrometeorologik manbalarini baholash. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

"Agrometeorologiya" fanidan talabalar, erkin atmosferani tadqiq etishning fizik tamoyillari va asosiy usullari; atmosferaning turli qatlamlarida sodir bo'luvchi fizik jarayonlarning asosiy qonuniyatlari; shamolni o'lchashning optik va radiolokatsion usullarining asosiy holatlari; bir va ikki punktda (bazali) sharplot kuzatuvlari; atmosferani radiozondlash tizimining asoslari; meteorologik radiolokatsion kuzatishlarning asoslari; meteorologik raketalar yordamida atmosferaning yuqori qatlamlarini tadqiq etish; aktinometrik zondlar va ozonozondlar yordamida atmosferani zondlashning maxsus usullari haqida *tasavvurga ega bo'lishi kerak*;

- sharplot kuzatish ma'lumotlarini qayta ishlash; atmosferani radiozondlash ma'lumotlarini qo'llash; radiolokatsion kuzatish ma'lumotlari bo'yicha butunlik tasvirlarini vizual deshifrovkalash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.
- asosiy atama, tushuncha va ta'riflar, tadqiqot usullariga yondoshuvlar; mavjud masofaviy o'lchash usul va asboblari; aerologik teodolitlarning tuzilishi va ular yordamida sharplot kuzatishlarni bajarish; sharplot kuzatish ma'lumotlarini qayta ishlash usullari; radiozondlash ishlarning tartibi; radiozondlash natijalarini qayta ishlash; bulut va yog'inlarni tadqiq etishda radiolokatsiyani qo'llash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalari;
- amaliy mashg'ulotlarni bajarish va xulosalash;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Krediti olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR: 1. A.Q. Abdullayev, H.A. Arg'inboyev, H.U. Abdullayev Fizika va agrometeorologiya (Agrometeorologiya). Darslik. Toshkent. 2015. -478 b. 2. A.Q. Abdullayev, M.A. Jumanov, O.G. Sultashova. Agrometeorologiya. O'quv qo'llama Toshkent. 2013. -151 b. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR: 1. Абдуллаев А.К., Холбаев Г.Х., Сафаров Э.Ю. Агрометеорологияда муносабатли тенгламаларни топшида математик статистикани қўллаш, ва ЭХМ ва Географик ахборот тизимларидан фойдаланиш учун курсатма. Тошкент. ГМИТИ Ўзгидромет. -2009. -150 б. 2. Абдуллаев Х.М. Ўзбекистонда агрометеорологик шароит ва шולי махсуддорлиги. Тошкент, Бошгидромет, - 2001 й. - 150 б. 3. Чирков Ю.И. Агрометеорология. -ЛГГ идрометиздат, 1986. -296 с. AXBOROT MANBALARI: 1. http://www.gismeteo.ru 2. http://www.rshu.ru 3. http://www.wmo.com	
	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustidagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
	Fan/modul uchun mas'ullar: Xaydarov S.A – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi dotsenti
	Taqrirlashchilar: Meliyev B.A – "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi mudiri PhD, dotsent(tel:(99)767725). Mirzoev Vagif Adil Ogli. – Samarqand viloyati gidrometeorologiya boshqarmasi boshlig'i. (tel: 998979276723).

Universitetning 2024-yil 16-avgustidagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ischi guruhi:
Rais – Xaydarov S.A



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi dotsenti S.A.Xaydarov tomonidan 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun "Agrometeorologiya" fanidan fan dasturiga

TAQRIZ

Mamlakatimiz o'liy ta'lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarga muvofiq ravishda, davr talabiga mos keladigan, yuqori malakali gidrologiya bakalavrlarini tayyorlash dolzarb ahamiyatiga ega. Bu borada 60520100 - Meteorologiya va iqlimshunoslik ta'lim yo'nalishi namunaviy o'quv rejasiga kiritilgan "Agrometeorologiya" o'quv fani alohida o'rin egallaydi.

Taqriz etilayotgan fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti Geologiya va gidrometeorologiya kafedrasi dotsenti S.A.Xaydarov tomonidan yuqorida qayd etilgan yo'nalishning Malaka talabalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Dasturda qayd etilganidek, Agrometeorologiya fani talabalarga agrometeorologik stansiyalar va postlar, atmosferaning tarkibi va tuzilishi, Quyosh radiatsiyasi va uning ekinlar uchun ahamiyati, tuproq va havoning harorat rejimi, namligining o'simliklar hayotiga ta'siri, atmosferadagi suv bug'i, bug'lanish va bug'lanuvchanlik, yog'inlar hamda qishloq xo'jaligi uchun xavfli hodisalarni o'rganish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Ushbu fanni o'rganish natijasida talabalar qishloq xo'jalik ekinlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy agrometeorologik omillar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan, Quyosh radiatsiyasini tavsiflovchi kattaliklar, havo va tuproqning harorati va namligi, xavfli meteorologik hodisalarga qarshi kurashish usullarini o'rgatishdan, agrometeorologik ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish usullarining rivojlanish istiqboli bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning asosiy, ya'ni ma'ruzalar mavzulari qayd etilgan qismida yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar o'zining to'liq aksini topgan. Ushbu bo'limga fanni o'rganish maqsadida keltirilgan mavzular o'zaro o'zviy bog'langan bo'lib, birini mazmunan to'ldirib boradi.

Dasturda bajarilishi rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar va ularning mavzulari esa barcha nazariy bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni amalga oshirish talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi.

Sir emasligi, har bir fanni o'rganishda bu jarayonga inson beradigan manbalardan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llamalari va hatto ilmiy monografiyalardan foydalanish o'rindidir. Fikrimizcha dastur so'ngida mualliflar tomonidan keltirilgan adabiyotlar ro'yxati shu masalalarni hisobga olgan holda jamlangan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizga xulosa qilib aytganda, SamDUda S.A.Xaydarov tomonidan tuzilgan "Agrometeorologiya" fanining fan dasturi shu fanni o'rganish bo'yicha 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik yo'nalishining Malaka talabalarida qayd etilgan vazifalarga to'la javob beradi va uni tasdiqla tavsiya etaman.

Geologiya va gidrometeorologiya kafedrasi dotsenti

D.N.Shirinboyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi dotsenti S.A.Xaydarov tomonidan 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun "Agrometeorologiya" fanidan fan dasturiga

T A Q R I Z

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarga muvofiq ravishda, davr talabiga mos keladigan, yuqori malakali gidrologiya bakalavrlarini tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada 60520100 - Meteorologiya va iqlimshunoslik ta'lim yo'nalishi namunaviy o'quv rejasiga kiritilgan "Agrometeorologiya" o'quv fani alohida o'rin egallaydi.

Taqriz etilayotgan fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti Geologiya va gidrometeorologiya kafedrasi dotsenti S.A.Xaydarov tomonidan yuqorida qayd etilgan yo'nalishning Malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Dasturda qayd etilganidek, Agrometeorologiya fani talabalarga agrometeorologik stansiyalar va postlar, atmosferaning tarkibi va tuzilishi, Quyosh radiatsiyasi va uning ekinlar uchun ahamiyati, tuproq va havoning harorat rejimi, namligining o'simliklar hayotiga ta'siri, atmosferadagi suv bug'i, bug'lanish va bug'lanuvchanlik, yeg'inlar hamda qishloq xo'jaligi uchun xavfli hodisalarni o'rganish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Ushbu fanni o'rganish natijasida talabalar qishloq xo'jalik ekinlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy agrometeorologik omillar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan, Quyosh radiatsiyasini tavsiflovchi kattaliklar, havo va tuproqning harorati va namligi, xavfli meteorologik hodisalarga qarshi kurashish usullarini o'rganishdan, agrometeorologik ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish usullarining rivojlantirish istiqboli bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning asosiy, ya'ni ma'ruzalar mavzulari qayd etilgan qismida yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar o'zining to'liq aksini topgan. Ushbu bo'limda fanni o'rganish maqsadida keltirilgan mavzular o'zaro o'zviy bog'langan bo'lib, birini mazmunan to'ldirib boradi.

Dasturda bajarilishi rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar va ularning mavzulari esa barcha nazariy bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni amalga oshirish talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi.

Sir emaski, har bir fanni o'rganishda bu jarayonga imkon beradigan manbalardan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalari va hatto ilmiy monografiyalardan foydalanish o'riniidir. fikrimizcha dastur so'ngida mualliflar tomonidan keltirilgan adabiyotlar ro'yxati shu masalalarni hisobga olgan holda jamlangan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizga xulosa qilib aytganda, SamDuda S.A.Xaydarov tomonidan tuzilgan "Agrometeorologiya" fanining fan dasturi shu fanni o'rganish bo'yicha 60520100 – Meteorologiya va iqlimshunoslik yo'nalishining Malaka talablarida qayd etilgan rejalarga to'la javob beradi va uni tasdiqqa tavsiya etaman.



Samarqand viloyati Agrometeorologiya boshqarmasi boshlig'i

V.A.Mirzoev